

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

_____” _____ 2021 yil

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R. I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

5A140602–GEOGRAFIYA (O‘RGANISH OBYEKTI BO‘YICHA)

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand - 2021

Annotatsiya

Dastur 5A140602-Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5140600-Geografiya ta'lim yo'nalishining 2017-2018 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Q.S.Yarashev - SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası mudiri, dotsent.

B.B.Eshquvvatov - SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrası dotseti v.b, PhD .

Taqrizchilar:

A.Abdulqosimov - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrası professori, g.f.d. X.J.Jo'raqulov - SamDU Hidrometeorologiya kafedrası dotsenti, g.f.n.

Dastur Geografiya va ekologiya fakultetining 2021 yil 28 iyundagi 10-sonli kengash yig'ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

Kirish

5140600-Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi ilm-fan va tabiatshunoslik sohasidagi yo'nalish bo'lib, Yer haqidagi bilimlar bilan aloqador bo'lgan loyihalash, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot, geografik ekspertiza, ma'muriy boshqaruv va pedagogik ishlarni, jumladan umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat va nodavlat muassasalarida; davlat va mahalliy boshqaruvi organlari, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida; tabiatni muhofaza qilish va ekologik hamda geoekologik muammolar, viloyat va tuman tabiatni muhofaza qilish bo'linmalarida, Respublika, viloyat va tuman toponimika xizmati bo'linmalarida, geografik ob'ektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bilan bog'liq kompleks masalalarni echishni qamrab oladi.

5140600-Geografiya ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A140602 – Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha) magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 11 ta umumkasbiy fanlar: “Umumiy tabiiy geografiya”, “Landshaftshunoslik”, “Inson geografiyasi”, “Aholi geografiyasi”, “Jahon geografiyasi”, “O'zbekiston geografiyasi”, “Geografik tadqiqot metodlari”, “Tabiyot va geografiya o'qitish metodikasi”, “Sanoat geografiyasi”, “Toponimika”, “Siyosiy geografiya” hamda 3 ta ixtisoslik fanlari: “SHaharlar geografiyasi”, “Biogeografiya”, “Amaliy geografiya” bo'yicha savollar shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

5A140602 – Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga kiruvchilar sinov topshirishda umumkasbiy fanlar etakchi bo'lib hisoblanadi. Bunda magistraturaga kiruvchilar geografiyaning o'rganish ob'ekti va predmeti, geografik qobiq va unda sodir bo'ladigan geografik jarayonlar, yer shari o'lchamlari va uning geografik oqibatlari, landshaft va unig turlari, O'zbekistonning geografik o'rni va chegaralari, tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlari, tabiiy resurslari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati, insonning tabiatdan foydalanishi va foydalanish kategoriyalarining mohiyatlarini, funktsiyalarini, iqtisodiyotdagi rolini, ularning tarkibiy qismlari bilan bog'liq savollarni, ularga taalluqli muammolar echimini bilishlari va yorita olishlari muhimdir. SHuningdek, sinov jarayonida abituriyentlarning mutaxassislik bo'yicha ilmiy, ilmiy-texnik axborotlar bilan mustaqil ishlash, tizimli mustaqil tahlil qilish, xulosalar chiqarish bo'yicha bilimlariga ham katta ahamiyat qaratiladi.

Ushbu dastur bugungi kun fan, ta'lim, texnika, iqtisodiyot, texnologiya va ijtimoiy soha rivojlanishini hisobga olgan holda o'quv, ishchi o'quv reja, o'quv dastur asosida 5A140602-Geografiya (o'rganish ob'ekti bo'yicha) magistratura mutaxassisligiga kirish uchun (mutaxassislik fanlaridan) uchun tuzilgan.

Geografiya - yerning geografik qobig'i, uning tarkibi, strukturasi, xududiy tabaqalanishini, uning shakllanishi va rivojlanishi, xususiyatlari haqidagi fandır.

Geografiyani asosiy maqsadi - magistrantlarga hozirgi zamon geografiyasining juda ko'p va xilma-xil masalalarini, ularni hal qilishning ilmiy-nazariy va amaliy tomonlarini magistrantlarning faol ishtirokida ko'rib chiqish, magistrantlarda geografiyaning zamonaviy tuzilishi, tadqiqot ob'ekti va predmeti,

ichki rivojlanish qonuniyatlari, o'rta va oliy maktabda o'qitilishi muammolari, amaliy qirralari va axamiyatiga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Geografiyaning asosiy vazifasi - magistrantlarga geografiyaning shakllanishi, rivojlanishi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, o'zaro aloqadorligi va rivojlanishi muammolarini aniqlash hamda geografiyaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish, fan oldida turgan vazifalar, dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tasavvur va bilimlarni hosil qilishdir.

Umumiy tabiiy geografiya fani bo'yicha:

Geografiya fanining rivojlanishini asosiy bosqichlari. Ilk geografik bilim kurtaklarining paydo bo'lishi. Antik davrda geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining o'rta asrlarda rivojlanishi. Buyuk geografik kashfiyotlarning geografiya fanining rivojlanishidagi ahamiyati. XIX asrda ilmiy geografiyaning rivojlanishi. Geografiya fanining hozirgi paytda rivojlanishi. Geografik qobiq, biosfera, geografik muhit ta'limotlarining yaratilishi. O'zbekistonda tabiiy geografiya fanining rivojlanishi.

Umumiy tabiiy geografiyaning tadqiqot usullari. Koinot, Quyosh sistemasi va Yer. Geografik qobiq. Geografik qobiqning tarkibiy qismlari.

Geografik qobiqning vertikal tuzilishi. Litosfera. Hidrosfera haqida umumiy tushuncha. Uning tarkibiy qismlari. Quruqlikdagi suvlar. Atmosfera, uning tarkibi. Atmosfera qatlamlari – troposfera, stratosfera, mezosfera, termosfera (ionosfera), ekzosfera, ozon qatlami. Biosfera. Hayotning tarqalish chegerasi. Organizmlarning turlari va ularning vazifasi. Geografik qobiqning gorizontaal tuzilishi. Geografik qobiqning harakatlari va ularning turlari. Geografik qobiqning rivojlanishi. Jamiyat va geografik qobiq.

Erning ichki tuzilishi va Geosferalar. Relef to'g'risida umumiy ma'lumot. Geoxronologiya shkalasi va Yerning yoshini aniqlash. Minerallar va tog' jinslari. Ularning fizik tasnifi. Endogen jarayonlar. Tektonik va neotektonik harakatlar. Magmatizm, metamorfizm va zilzila. Ularning relief hosil bo'lishidagi o'rni

Er po'stining rivojlanish qonuniyatlari. Planetar relief shakllari. Ekzogen jarayonlar. Nurash va relief. Yonbag'irlar va relief. Oqar suvlarning geologik ishi. Flyuvial relief shakllari. Karst jarayonlar va karst reliefi. Suffozion jarayonlar va relief shakllari. Glyatsial jarayonlar va muzloq relief shakllari. Qirg'oqlar reliefi. Dengiz va okeanlarning geologik ishi. Okean tubining reliefi. Eol jarayonlar va relief shakllari.

Landshaftshunoslik fani bo'yicha:

Landshaftshunoslikning yuzaga kelishi va rivojlanishi. Landshaft haqida asosiy tushunchalar. Landshaftlarning tuzilishi va xususiyatlari. Landshaftlarning funktsional-dinamik xususiyatlari. Landshaftlardagi o'zaro aloqadorliklar va ta'sirlar.

Landshaftlarning hududiy tabaqalanishi va ularning tasniflanishi. Landshaft va inson aloqadorligi masalalari.

Amaliy landshaftshunoslik. Landshaftlarni xo'jalikning turli tarmoqlarida foydalanish nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy printsiplari va metodlari. Madaniy landshaftlar.

Inson geografiyasi fani bo'yicha:

Inson geografiyasining fanlar tizimida tutgan o'rni, tadqiqot ob'ekti va predmeti. Inson geografiyasining shakllanishi. Resurslar va landshaftlar. Fanning tadqiqot usullari. Tarixiy geografiya. Aholi geografiyasi. Madaniy makon (madaniyat geografiyasi). Urbanizatsiya. Iqtisodiy geografiya. Iqtisodiy geografiya inson geografiyasining muhim bir tarmog'i ekanligi. Iqtisodiy geografianing tuzilishi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, transport geografialari inson geografiyasining asosiy tarmoqlari sifatida. Xo'jalik tarmoqlari haqida tushuncha, ularning klassifikatsiyasi.

Sotsial geografiya. Tibbiyot geografiyasi. Siyosiy geografiya. Geografik tuzilmalar. Geografik jarayonlar. Geografik mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarning shakllanishi. Halqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Iqtisodiy geografik o'rin. Aholi migratsiyasi jarayonlari va uning sabablari. Hozirgi zamon halqaro aholi migratsiyasining geografik manzarasi. Geosiyosiy jarayonlar. Inson geografiyasi va ekologiya. Iqlim va uning o'zgarishlari.

Aholi geografiyasi fani bo'yicha:

Aholi geografiyasi fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish omillari. Aholi geografiyasi fanining muammolari. Demografik ma'lumotlar manbalari xaqida umumiy tavsiflar. Aholini hisobga olish, turlari, aholi ro'yxati, rivojlangan, rivojlanayotgan hududlarda aholi sonini ro'yxatga olish. Aholining yosh - jins tarkibi, mehnat resurslari va demografik siyosat. Aholi jins tarkibi shakllanishidagi omillar. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar. Aholining yosh tarkibi, uning shakllanish omillari va yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi. Aholining yosh-jinsiy tarkibining demografik va hududiy xususiyatlari. "Bandlik", "mehnat resurslari", "iqtisodiy faol aholi" tushunchalari va ularning tarkibi. Mehnatda band aholi. Mehnat resurslari balansi. Mehnat resurslari shakllanishi va ulardan foydalanishning hududiy xususiyatlari. Aholi bandligi muammolari. Mehnat bozori, uning hozirgi holati va rivojlanish xususiyatlari. Demografik siyosat. Demografik siyosat o'tkazish metodlari. Dunyo mintaqalari aholisi tabiiy harakati va ularning hududiy xususiyatlari. Aholi o'limining tarixiy bosqichlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi o'limining pasayishi. Rivojlangan davlatlarda aholi o'limidagi jinslar farqi. Tug'ilish jarayoni, darajasi, ta'sir etuvchi omillari va sabablari. Dunyoda tug'ilish samaradorligi va dinamikasi. Aholi migratsiyasi, uning turlari va yo'nalishlari. Aholining irqiy va etnik tarkibi. Dunyo aholisining diniy tarkibi. O'zbekistonda aholi geografiyasi.

Jahon geografiyasi fani bo'yicha:

Geografik qobiq rivojlanishining asosiy xususiyatlari va landshaftlarning umumiy tabaqalanishi. Yerdagi quyosh radiatsiyasining taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari va ularning hosil bo'lishi. Quruqlikdagi tabiat zonalari.

Okeanlar tabiiy geografiyasi. Regional birliklari: Tinch, Atlantika, Hind va SHimoliy Muz okeani. Okeanlarga umumiy tabiiy geografik ta'rif. Materiklar tabiiy geografiyasi. Evrosiyo. Evrosiyoning asosiy xususiyatlari. Materikning shakllanish tarixi. Relefining asosiy shakllari. Foydali qazilmalari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Ichki suvlari. Evrosiyoning tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari.

SHimoliy Amerika. Tabiiy geografik xususiyatlari. SHakllanish tarixi. Materikning tarkib topishidagi asosiy bosqichlar. Asosiy relef shakllari. Iqlimi. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi. Geografik mintaqalar va tabiat zonalari, ularning joylanishining o'ziga xos xususiyatlari.

Janubiy Amerika. Geografik joylanishi, qiyofasi, o'lchamlari va tabiatining asosiy xususiyatlari. SHakllanish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Iqlim mintaqalari va ularning ta'rifi. Ichki suvlari. Tuproq, o'simlik qoplami va hayvonot dunyosining asosiy xususiyatlari. Geografik mintaqalari va zonalari. And tog'laridagi mintaqalar. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari.

Afrika. Materik geografik o'rnining asosiy xususiyatlari. SHakllanish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Iqlimi. Faunistik oblastlari, hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlari. Tuproqlari va ularning hosil bo'lish jarayoni. Asosiy qo'riqxonalari. Geografik mintaqalari va tabiat zonalari, ularning tavsifi. Yirik regional tabiiy geografik o'lkalari.

Avstraliya. Tarkib topish tarixi, relefi va foydali qazilmalari. Avstraliya platformasining tuzilishi va uni relefda aks etganligi Hozirgi vaqtdagi relef hosil qiluvchi omillar. Rudali foydali qazilmalar, oltin mintaqasi, neft-gaz va ko'mir havzalari. Iqlimi va ichki suvlari. Iqlimini hosil qiluvchi omillar. Namlik va yog'inni taqsimlanishi. Iqlim mintaqalari. Daryolari. "Kriklar", sho'r ko'llar, yer osti suvlari (arteziyan havzalari). Geografik mintaqalari va tabiat zonalari. Regional tabiiy geografik o'lkalari.

Okeaniya. Tabiatning asosiy xususiyatlari. Geologik tuzilish va relefi. Asosiy relef shakllari. Foydali qazilmalari. Iqlimi va ichki suvlari. Tuproq-o'simlik qoplami va hayvonot dunyosi. Tuproqlarning, o'simliklarning asosiy turlari. Tabiiy geografik o'lkalari: Melaneziya, Mikroneziya, Polineziya, YAngi Zelandiya.

Antarktida. Tabiatning asosiy qirralari, o'lchamlari. shakllanish tarixi. Muz usti va osti relefi. Iqlimining o'ziga xos xususiyatlari. O'simlik va hayvonot dunyosi.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining ob'ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanlar tizimida tutgan o'rnini va aloqalari. Dunyoning hozirgi zamon siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining sotsial-iqtisodiy guruhlari. Jahon tabiiy resurslari geografiyasi. Ekologik muammolar. Jahon aholisi. Jahon aholisi soni va o'sishi. Jahon urbanizatsiyasi. Xalqaro mehnat taqsimoti va unga ta'sir etuvchi omillar. Xalqaro mehnat taqsimotining shakllanishi. Hududiy mehnat taqsimoti. Xalqaro va rayonlararo mehnat taqsimoti. Adam Smitning mutlaq afzallik nazariyasi. David Rikardoning nisbiy (qiyosiy) afzallik qonuni. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jaligining shakllanishi. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning omillari. Jahon xo'jaligi. Jahon xo'jaligi va

uning tarmoqlar tarkibi. Sanoatni hududiy tashkil etish omillari. Jahon qishloq xo'jaligi. Jahon transporti. Transportning turlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashtirish jarayonlari. Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Jahonning regional tafsifi. Evropa. Evropa siyosiy xaritasi, uning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni. Germaniya. Buyuk Britaniya. Frantsiya. Italiya. MDH va SHarqiy Evropa davlatlari. Osiyo mamlakatlari. SHarqiy Osiyoning rivojlangan davlatlari. Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari. Janubiy Osiyo. Hindiston. SHimoliy Amerika davlatlari. AQSH. Kanada. Lotin Amerikasi davlatlari. Afrika davlatlari. SHimoliy Afrika davlatlari. Tropic Afrika davlatlari. Janubiy Afrika davlatlari. Avstraliya va Okeaniya davlatlari.

O'zbekiston geografiyasi fani bo'yicha:

Hududiy tabiiy geografiyaning ob'ekti va predmeti. O'zbekiston tabiatini geografik o'rganish tarixi bosqichlari. O'zbekiston tabiatini shakllantiruvchi omillar. Tektonikasi va geologik tarixi. O'zbekiston orografiyasi va relefining asosiy xususiyatlari. O'zbekiston iqlimi. O'zbekistonning ichki suvlari. Tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosi. O'zbekistonda tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish. O'zbekistonda landshaftlari va ularni xo'jalik maqsadlarida baholash. Regional qism. O'zbekistonni tabiiy-geografik rayonlashtirish tajribalari. Mavjud rayonlashtirish sxemalarining tahlili. O'zbekistonning o'quv maqsadlariga moslashtirilgan tabiiy-geografik rayonlashtirish sxemasi. O'zbekistonning tekislik kichik provintsiyasi okruglariga (Ustyurt, Orol, Quyi Amudaryo, Qizilqum, Quyi Zarafshon) tabiiy geografik tavsif. Tog' oldi va tog' kichik provintsiyasi okruglariga (O'rta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Mirzacho'l, CHirchiq-Ohangaron, Farg'ona) tabiiy geografik tavsif.

O'zbekistonning jaxon siyosiy xaritasidagi o'rni, ma'muriy-hududiy bo'linishi. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va mineral xomashyo resurslari, ularning xo'jalik ahamiyati. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari, mehnat bozori. O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining umumiy tavsifi.

O'zbekiston sanoati. YOqilg'i-energetika majmuasi. Metallurgiya sanoati. Kimyo sanoati. Mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati. Qurilish materiallari, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va tsellyuloza-qog'oz sanoati. Engil va oziq-ovqat sanoati. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik geografiyasi. CHorvachilik geografiyasi. Ijtimoiy sohalarining rivojlanishi. O'zbekiston transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi. Regional qism. O'zbekiston Respublikasi xo'jaligining hududiy tarkibi va iqtisodiy rayonlari. Toshkent iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayoni. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Zarafshon iqtisodiy rayoni. Janubiy iqtisodiy rayon. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni.

Geografik tadqiqot metodlari fani bo'yicha:

Tabiiy geografik tadqiqotlarning mazmuni. Geografiyada sifat va miqdorli yondashuvlar. Geografik ilmiy-tadqiqot ishlarini loyihalash. Tadqiqot loyihasi va uning ahamiyati.

Tabiiy geografik tadqiqotlarning metodologiyasi. Tadqiqot printsiplari: hududiy yaxlitlik, komplekslilik, genetik-tarixiy birlik, regionallik, nisbiy bir xillik

va boshqa printsiplar. Yondoshuvlar: tizimli, kompleks geografik, landshaftli, havzaviy, ekologik yondashuvlar.

Tabiiy geografiyada tadqiqot metodlari. Tabiiy geografiyada tadqiqot metodlarining rivojlanishi. An'anaviy metodlar (dialektik, qiyoslash, ekspeditsiya, tasviriy-yozma, kartografik va b.); XX asrning 30-50 yillarida tabiiy geografiyada qo'llanilgan metodlar (statsionar, kompleks, paleogeografik, geofizik, geokimyoviy, aerometodlar va h.k.); XX asrning 60-80 yillarida qo'llanilgan metodlar (kosmik, statistik, modellashtirish, rayonlashtirish, tipologik, laboratoriya-analitik, modda-energiya balansi va b.). GIS texnologiyalarining ahamiyati.

Tabiiy geografik tadqiqotlarning asosiy bosqichlari. G'oyaning tarkib topish bosqichi. Tayyorgarlik bosqichi. Dala bosqichi Kameral bosqich. Hisobot bosqichi. Kompleks tabiiy geografik tadqiqotlar. Geotizmlarni tahlil qilish. Geografik ma'lumotlarni qayta ishlash va tasvirlash. Tadqiqot hisobotini tayyorlash.

Iqtisodiy va sotsial geografiyada ilmiy tadqiqotlarning nazariy uslubiy asoslari. Iqtisodiy va sotsial geografiyada ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish. Aholi geografik tadqiqotlarning ob'ekti sifatida. Mehnat resurslarini geografik o'rganish. Aholi punkti (shahar)ni geografik jihatdan o'rganish. Aholi punktlarini geografik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. SHahar tushunchasining mohiyati va uni iqtisodiy-sotsial geografiyaning murakkab tadqiqot ob'ekti ekanligi. Sanoat tarmoqlarini geografik o'rganish. Sanoat tarmoqlarini hududiy tadqiq etishning maqsadi va vazifalari. Sanoat tarmoqlari tasnifi. Qishloq xo'jaligini geografik o'rganish. Qishloq xo'jaligini geografik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jaligini tarmoqlar tarkibi. Aholiga xizmat ko'rsatish soxalarini geografik o'rganish. Xizmat ko'rsatish soxalarini geografik o'rganishning xususiyatlari, uning zamonaviy holati. Sotsial geografiyaga oid tadqiqotlar. Sotsial geografiyaning geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni. Uni tor va keng ma'noda tushunish. Ijtimoiy geografik tadqiqotlarni tashkil etish. Geosiyosat va siyosiy geografiyada tadqiqotlarni tashkil etish.

Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi fani bo'yicha:

Geografiya o'qitish metodikasi fani, predmeti, tadqiqot ob'ekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. Geografiya ta'limi metodikasining shakllanishi va rivojlanishi tarixi. O'rta maxsus, kasb-hunar, umumta'lim tizimi geografiyasining mazmuni, tarkibi.

O'qitish metodlari. Geografiya ta'limini uyushtirishning shakllari. Geografiya ta'limi jarayon qismlari. Tarbiya turlari. Ta'limda tadqiqot usullari. Geografiya maydonchasi va xonasi. Tabiiyot va geografiya ta'limi vositalari. Tabiiyot va geografiya o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. O'quvchini mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. O'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Sanoat geografiyasi fani bo'yicha:

“Hududiy majmua”, “Hududiy kompleks”, “Hududiy tizim” tushunchalari. Iqtisodiyot tarmoq (sektor)larining tuzilishi va dinamikasi. Iqtisodiyotning birlamchi sektori. Iqtisodiyotning ikkilamchi sektori. Iqtisodiyotning uchlamchi sektori. Iqtisodiyotning to'rtlamchi sektori. Sanoatning tarmoqlar tarkibi. Qishloq xo'jaligining tarmoqlar tuzilishi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish va hududiy tashkil qilish. Hududiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishni joylashtirish omillari. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shakllari. Sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil qilish va rayonlashtirish. Xo'jalik tizimlarining tarmoqlar tarkibi. Og'ir sanoat tarmoqlari. Yuqori texnologik tarmoqlar. Hududiy majmualar, energiya ishlab chiqarish tsikllari va klasterlar. Xom-ashyoga yo'naltirilgan tarmoqlar. Global agrotadbirkorlikning o'zgarishlari. Agrosanoat majmuasi. Sanoatni joylashtirishning statik modellari. Sanoatni joylashtirishning dinamik nazariyalari. Kristallarning joylashtirish sxemasi va transportning iqtisodiyotda tutgan o'rni.

Toponimika fani bo'yicha:

Toponimika fani, tadqiqot ob'ekti va predmeti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi.

Toponimika va geografik terminshunoslikning bog'liqligi. Rivojlanish tarixi. O'zbekistonda toponimikaning hozirgi ahvoli, toponimik tadqiqotlar. Toponimlarni geografik jihatdan tadqiq etilishi. Toponimikaga oid huquqiy-me'yoriy xujjatlar. “Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari. Geografik nomlarning turlari. Toponimik sinf (klass)lar, ularning tavsifi. Geografik nomlarni turlarga ajratish mezonlari.

Toponimika va landshaft. Geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi. O'zbekiston va Toshkent toponimlari ma'nosi. Toponimik tadqiqotlar. Geografik terminlar. Geografiya ta'limi va toponimika. Geografiya bilan toponimika hamda atamashunoslikning bog'liqligi. Geografiyada joy nomlari ma'nosini, terminlarni bilishning ahamiyati. Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish.

Siyosiy geografiya fani bo'yicha:

Siyosiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni, tadqiqot ob'ekti va predmeti. Siyosiy geografiyaning ilk tarixiy kurtaklari. Siyosiy geografiyaning o'zaro bog'liqligi va tafovutlari. Siyosiy geografiyaning asosiy tushuncha va kategoriyalari. Siyosiy geografiya kontseptsiyasi va siyosiy geografiya. Dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanishi. Dunyo mintaqalari siyosiy xaritasi. Klassik geosiyosiy kontseptsiyalar. Zamonaviy geosiyosiy kontseptsiyalar. Globalizatsiya va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. O'zbekistonning geosiyosiy salohiyati va imkoniyatlari. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari. Dunyo siyosiy xaritasida O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rni. Mamlakatning tabiiy-resurs, demografik, iqtisodiy salohiyati va uning geosiyosiy ahamiyati. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o'rni va roli. O'zbekistonning

Markaziy Osiyo, MDH va jahon mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlari va ularning geosiyosiy jihatlari. Prezident asarlarida siyosiy-geografik (geosiyosiy) masalalarning yoritilishi.

SHaharlar geografiyasi fani bo'yicha:

SHaharlar geografiyasining ob'ekti va predmeti, uni o'rganishdagi asosiy vazifa va usullar. SHaharlarning vujudga kelish tarixi. SHaharlar hosil qiluvchi asosiy omillar. SHaharlar klassifikatsiyasi. SHaharlarning funktsiyalari. SHaharlarning funktsional tiplarga ajratish usullari, yirik ko'p funktsiyali shaharlar, keng tarmoqli sanoat markazlari, sanoat, transport, rekreatsiya, ilm-fan va boshqa sohalarga ixtisoslashgan shaharlar. SHaharlarning hududiy tizimlari. SHahar va shahar aglomeratsiyalarining hududiy tarkibi. Hududni funktsional zonalarga, sektorlarga ajratish. SHahar aholisini hududiy tashkil etish. SHaharda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirish. "Optimal shahar" tushunchasi va mezonlari; yirik shahar va aglomeratsiyalarni hududiy kengayishini nazorat qilish, tartibga solish va bashorat qilish. Urbanizatsiya va uning mintaqaviy xususiyatlari. Rayon planirovkasi va shaharsozlik masalalari. SHaharlar bosh rejasi va shaharlar rivojlanishining bashorati. O'zbekiston shaharlari geografiyasi. Toshkent iqtisodiy rayoni shaharlari. Farg'ona rayoni shaharlari. Mirzacho'l mintaqasi shaharlari. Zarafshon mintaqasi shaharlari. Janubiy iqtisodiy rayon shaharlari. Quyi Amudaryo rayon shaharlari.

Biogeografiya fani bo'yicha:

Biogeografiyaning predmeti, tadqiqot ob'ekti. Biogeografiya, uning turlari, fanning ahamiyati.

Biogeografiyaning rivojlanish bosqichlari. Organizmlarning tarqalish omillari. Ekosistema, biom va biogeotsenoz. Ekosistemaning asosiy komponentlari. Tirik organizmlar ekosistemaning asosiy qismi: avtotroflar, geterotroflar, produtsentlar, konsumentlar, redutsentlar.

O'simlik va hayvonlarning hayot formalari. Arel haqida ta'limot asoslari. Biogeografiyada areal tushunchasi, tur areali - biogeografik tuzilishning asosi, areallarni kartalashtirish uslublari (nuqtalar orqali kartalashtirish uslubi, kontur uslubi, to'rsimon uslub), areal ko'lam, shakli va ularni belgilovchi asosiy omillar.

Yer yuzasining floristik va faunistik regionlari. Madaniy o'simlik va tirik organizmlar olami geografiyasi. Biologik xilma-xillik va uni muhofaza qilish. Genetik, turlar va ekosistema xilma xilligi.

Amaliy geografiya fani bo'yicha:

Amaliy geografiyaning metodologik asoslari. Amaliy geografiyaning tadqiqot yo'nalishlari. Muhandislik geografik tadqiqotlar. Tabiiy xavfli jarayonlarni tadqiq etishda amaliy geografiya. Tibbiy geografik tadqiqotlar. Ekologik muammolarni hal etish va oldini olishda amaliy geografiya. Yer va suv resurslaridan foydalanishda amaliy geografiya. Amaliy geografiyada prognozlashtirish. Sanoat korxonalarini, aholi punktlarini iqtisodiy geografik jihatdan o'rganish. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va klasterlar. Tabiiy sharoit va resurslarni halq

ho'jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash. Hududiy dasturlash va rejalashtirish. SHaharsozlik asoslari. Qishloq joylar geografiyasi, qishloq xo'jaligida agroiqlimiy resurslarni baholash. Tabiiy resurslardan foydalanish va geoeologik muammolar. Geografik ekspertiza. Iqtisodiy rayonlashtirish va mintaqaviy siyosat. Iqtisodiy geografik prognoz. Sotsial-iqtisodiy kartografiya.

Tavsiya qilingan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdalova Z.T., Tojiev Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», - 2013. 212 bet.
2. Abdunazarov O'.Q.va boshq. Umumiy tabiiy geografiya. –T.: “Vneshinvestprom”, 2019.
3. Avezov M., Egamov B. Okeanlar tabiiy geografiyasi. –T.: “Vneshinvestprom”, 2020
4. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. – T.: 2009.
5. Komilova N.Q., Jumaxonov Sh., Rajabov F. Inson geografiyasi. O'quv qo'llanma. T.: “Universitet”, 2018.
6. Tojiyeva Z. Aholi geografiyasi. Darslik. - Toshkent.: “Nodirabegim”, 2019.- 252 b.
7. Vahobov H va boshq. Umumiy Yer bilimi. – T.: Bilim, 2005.
8. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. –T.: “Turon zamin ziyo”, 2016.
9. Алибеков Л.А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Самарқанд, 2009.
10. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебник. – М.: Юрайт., 2018. – 279 с.
11. Асанов Г.Р. Социал-иқтисодий география: термин ва тушунчалар изоҳли луғати. –Т., 1990.
12. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана. Науч.тр. ТашГУ, вып.231, - T.: 1964.
13. Баранский Н.Н. Научные принципы географии. Избр. труды. –М., 1980.
14. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – T.: Ўқитувчи, 1996.
15. Баратов П., Маматкулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – T.:Ўқитувчи, 2002.
16. Боков В.А., Селиверстов Ю.П., Черванов И.Г. Общее землеведение. СПб. 1999.
17. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. Ўқув қўлланма. – T.: Тафаккур, 2011. – 159 б.
18. Власова Т.В. Материклар ва океанлар табиий географияси. -T., 1985.
19. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. –М.,
20. Геренчук К.И. и др. Общее землеведение. –М.: 2001.
21. Гуломов П.Н. География ва табиатдан фойдаланиш.–T.: Ўқитувчи, 1985.
22. Джонсон Р.Дж. География и географы. –Л., 1989.
23. Жекулин В.С. Введение в географию. - Л., 1989.
24. Жўлиев А.Х., Соатов А., Юсупов Р. Геология асослари. – T.: ЎзМУ, 2001.-148-б.
25. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование. –М.: Высшая школа, 1987.
26. Зокиров Ш.С. Антропоген ва амалий ландшафтшунослик.– T.:Университет, 1998.
27. Зокиров Ш. Кичик ҳудудлар табиий географияси. Тошкент 1999.
28. Исаченко А.Г. Оптимизация природной среды. –М.: Мысль, 1980.

29. Исаченко А.Г. Прикладное ландшафтоведение. ч.1., -Л.: 1976.
30. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. Москва, 1991.
31. Калесник С.В. Умумий Ер билими қисқа курси. Т., 1966, 300 б.
32. Когай Н.А. Общее географическое районирование Туранской части Средней Азии. –Т.: Фан, 1969.
33. Колосовский Н.Н. Избранные труды.-.-Смоленск, 2006.
34. Қаюмов А., Рахимов А.К., Якубов У.Ш. Табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилонга фойдаланиш: ўқув қўлланма.: Маъсул муҳаррир Ю.Ғ.
35. Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник для вузов.-2-е изд., перераб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. - 735 с.
36. Максаковский В.П. Географическая картина мира. Кн. I, II: Общая характеристика мира.- М.: Дрофа, 2008, - 495 с.
37. Махмудов; ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: “Fan va technology”, 2011.– 156 б.
38. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. -М.: Высшая школа, 1990.
39. Рычагов Г.И. Общая геоморфология (учебник).3-изд. –М.: Наука, 2006.
40. Савцова Т.М. Общее землеведение. М., «Академия», 2003.
41. Саушкин Ю.Г. Избранные труды. - Смоленск, 2001.
42. Соатов А., Юсупов Р. Геоморфология асослари.-Т.: Университет, 2003.-80-б.
43. Солиев А. Ўзбекистон географияси // Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.-Т.:Университет, 2014.
44. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари.-Т., 1999.
45. Солиев А., Махамдалиев Р. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт.-Т.Университет, 2013.
46. Солиев А., Назаров М., Қурбонов Ш. Ўзбекистон ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. - Т.:Мумтоз сўз, 2010.
47. Солиев А., Таштаева С., Эгамбердиева М.. Шаҳарлар географияси. Ўқув қўлланма.-Т., 2019.
48. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методлар ва амалиёт. - Т., 2013.
49. Судакова С.С. Общее землеведение. -М.: Недра, 1987.
50. Ҳасанов И. Ўзбекистон табиий географияси (маърузалар матни).-Т., ЎзМУ, 2000.
51. Чиниқулов Х., Жўлиев А.Ҳ. Умумий геология.-Т.: 2011.396-б.
52. Шубаев П.П. Умумий ер билими -Т.: 1975.
53. Янчук С.Л.Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	TEST - kompyuterda
Test yechish uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Test savollari soni	50
Har bir to`g`ri javob uchun ball	2
Maksimal ball	100
O`tish bali	55

